

BOTANIK TERMINLARNING ETIMOLOGIK XUSUSIYATLARI

Sultonova Kibriyoxon Faxriddin qizi

Navoiy davlat universiteti doktoranti,

kibriyosulton@mail.ru

Annotatsiya: Mazkur maqolada o‘zbek tilidagi botanik terminlarning etimologik xususiyatlari ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Unda terminlarning milliy va o‘zlashma qatlamlari, ularning shakllanish manbalari hamda semantik rivojlanishi yoritilgan. Xususan, turkiy ildizli so‘zlar, arabcha va fors-tojikcha o‘zlashmalar misolida terminlarning taraqqiyoti ochib berilgan. Tadqiqot natijalari botanika terminologiyasida milliylik va xalqaro standartlarning o‘zaro uyg‘unligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: botanik terminlar, etimologiya, milliy terminologiya, o‘zlashma qatlam, turkiy ildizli so‘zlar, fors-tojikcha o‘zlashmalar, arabcha o‘zlashmalar, izohli lug‘at, termin tizimlashtirish.

Abstract: This article scientifically analyses the etymological characteristics of botanical terms in the Uzbek language. It discusses the national and loan layers of the terms, their sources of formation, as well as their semantic development. In particular, the development of terms is illustrated through examples of Turkic-rooted words, Arabic, and Persian-Tajik loanwords. The research findings demonstrate the compatibility between national identity and international standards in botanical terminology.

Key words: botanical terms, etymology, national terminology, loan layer, Turkic-rooted words, Persian-Tajik loanwords, Arabic loanwords, explanatory dictionary, term systematisation.

Аннотация: В данной статье научно проанализированы этимологические особенности узбекских ботанических терминов. Рассматриваются национальные и заимствованные пласты терминов, их источники формирования и семантическое развитие. В частности, развитие терминов раскрывается на примерах слов с тюркскими корнями, арабских и персоязычных заимствований. Результаты исследования показывают взаимосвязь национальности и международных стандартов в ботанической терминологии.

Ключевые слова: ботанические термины, этимология, национальная терминология, заимствованный пласт, слова с тюркскими корнями, персоязычные

заимствования, арабские заимствования, толковый словарь, систематизация терминов.

Ma'lumki, til faqat muloqot vositasigina bo'lib qolmasdan, insoniyat ma'naviyati, madaniyati ifodachisi, xalqlarning uzoq yillik bilim va tajribalarini saqlab keyingi avlodga yetkazib beruvchi manba hamdir. Globallashuv jarayonining jadallashishi xalqlar o'rasidagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalarning kuchayishiga sabab bo'lmoqda. "Globallashuv sivilizatsiyalar o'zaro munosabatining natijasi bo'lsa, sivilizatsiya – globallashuvning natijasi. Bu ikki jarayonning o'zaro munosabati tarixiy sharoitdan kelib chiqib, "sivilizatsiya - globallashuv" yoki "globallashuv - sivilizatsiya" sifatida amalga oshgan"¹⁵⁵. Globallashuvning ijobiy jihatlari sifatida xalqaro miqyosdagi sohalar integratsiyasi, bir mamlakatda ixtiro qilingan texnika va texnologiyalarning boshqa mamlakatda tezda ommalashishi, raqamli infratuzilmaga ega bo'lish jarayonining jadallashishida ko'zga tashlanadi. Bu kabi jarayonlarning, turli sohalar qatorida, tilshunoslikda ham namoyon bo'lishi tabiiy holdir. "Internetda dunyo o'zlashma so'zlarining 395 tilda ishlangan bazasi (The World Loanword Database – WOLD) ham mavjud, ulardan 369 tasi so'z beruvchi til (donor til), 41 tasi so'z o'zlashtiruvchi til, 15 tasi esa har ikkala guruhga ham kiruvchi til sifatida ko'rsatilgan"¹⁵⁶. Anglashiladiki, dunyoda tillar orasida so'z almashish jarayoni faol amalga oshmoqda. Bu borada terminlarning ahamiyati katta, albatta.

So'nggi yillarda milliy terminologiya terminografiyani taraqqiy ettirish bo'yicha izlanishlar soni ortib bormoqda. Zero, terminologiya ilmiy muloqotda axborot yetkazishning asosiy manbai, turli ixtisosliklarni o'rganish, ilmiy-texnik jarayonlarning tezlashishiga yordam berish vositasi hisoblanadi. Chunki har bir fan sohasi o'z terminlar tizimiga ega bo'lib, ularning mohiyatini anglamasdan fanni o'zlashtirishning imkoni yo'q. Boshqacha aytganda, terminlar har qanday fanni o'zlashtirishning kaliti bo'lib xizmat qiladi. Terminlar, ularning ahamiyati haqida tadqiqotchi T.Valiyev quyidagi fikrlarini keltirish o'rinli bo'ladi: "Terminlar – ilmiy-texnik jarayon, turli fan sohalariga doir bilimlarni aks ettiruvchi ixtisoslashgan so'zlardir"¹⁵⁷. Terminlarning mohiyatini ochib berishda ularning maxsus lug'atlarda ulrga berilgan izohlar muhim o'rin tutadi. Negaki, maxsus lug'atlar masala mohiyatiga muayyan soha nuqtayi nazaridan yondashadi. "Tilshunoslik terminlari lug'ati"

¹⁵⁵ Юзлдашева Ф.Х. Ўзбекистонда глобаллашув шароитида маънавий янгиланишнинг ўзига хос хусусиятлари: Фалс. фанл. док. (DSc) ... дисс. автореф. – Тошкент, 2019. – Б.30.

¹⁵⁶ Шукуров О.У. Ўзбек тили замонавий ўзлашмаларининг эволюцияси, трансформацияси ва лексикографик талқини масалалари (мустақиллик даври): Филол. фанл. док. (DSc) ... дисс. – Қарши, 2022. – Б.15. – 255 б.

¹⁵⁷ Валиев Т.Қ. Ўзбек тили йўлсозлик терминларининг структур-семантик хусусиятлари ва лексикографик талқини: Фил. фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) ... диссертация. – Самарқанд, 2018. – Б.25.

(2002) da termin so'ziga quyidagicha izoh keltirilgan: "Fan, texnika va boshqa sohaga oid narsa haqidagi tushunchani aniq ifodalaydigan, ishlatilish doirasi shu sohalar bilan chegaraladigan so'z yoki so'z birikmasi; atama"¹⁵⁸. Keltirilgan har ikkala ta'rif ham terminlarning muayyan sohaga aloqador so'zlar ekanligini tavsiflaydi. Shu tufayli sohalarga oid terminlarni tartibga solish, ularning turli xususiyatlarini o'rganish, lug'atlardagi talqinini mukammal darajaga olib chiqish tilshunoslar oldida turgan eng muhim masalalardandir.

Butun dunyo tilshunoslarini terminlarni milliyashtirish masalasi o'ylantirib kelmoqda. Bu jarayon samarali kechishi uchun terminlarni etimologik jihatdan tahlil qilish lozim bo'ladi. Jahondagi barcha tillar so'z o'zlashtirish hisobiga ham boyib boradi. Dunyoda sof tilning o'zi mavjud emasligi, har bir til boshqa tildan so'z o'zlashtirishi tabiiy hol ekanligi fikrimizni dalillaydi. "Qarindosh bo'lmagan tildan kirib kelgan leksema o'zlashma, olinma yoki o'zlashma qatlam deyiladi"¹⁵⁹. Mamlakatimiz va xalqimiz hayotining turli sohalaridagi o'zgarishlar, keng ko'lamli islohotlar o'zbek tili leksikasiga ham o'z ta'sirini o'tkazmay qolmaydi, albatta. Bu holat terminologiyada yanada yaqqolroq ko'zga tashlanadi. O'zlashma so'zlarning leksikadagi faolligi oshib borishi o'z qatlam so'zlarining darajasini pasaytiradi, albatta. Ammo sohalarga oid terminlarni xalqaro me'yorlarga mos tarzda tizimlashtirish masalasi yechimi sifatida terminologiyadagi milliy til birliklariga nisbatan olinma til birliklarini qo'llash samaraliroq ekanligini ham e'tirof etish lozim. Bu esa o'zbek terminologiyasida umume'tirof etilgan baynalmilal til birliklari sonining oshishiga olib kelib keladi.

O'zbek tilining yirik hajmli terminologiyasida sof o'zbekcha til birliklaridan tashqari, turli tillardan o'zlashgan so'zshakllar o'rin olgan. Bu botanika terminologiyasida ham o'z aksini topadi. Botanik terminlarning etimologik xususiyatlarini ajratishda, eng avvalo, o'z qatlamga mansub til birliklariga e'tibor qaratishni maqsadga muvofiq deb hisobladik. Bunda "O'zbek tilining izohli lug'ati" va A.I.Qosimov va M.M.Nabiyevlarning "Botanikadan qisqacha izohli lug'at" (1990), "Biologiyadan qisqacha izohli lug'at" (A.Abdullayev va boshq., 2016) va "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" ma'lumotlariga asoslandik. Demak, botanikaga oid bo'lgan o'z qatlamga mansub terminlar sifatida *ayiqto'von*, *ayiqquloq*, *ayiqo't*, *amiri*, *andiz*, *anjir*, *anjabor*, *anona*, *anchar*, *ajriq*, *baliqko'z*, *beda*, *bekzodi*, *chayono't*, *galla*, *dal*, *dalachoy*, *dukkak*, *yertut*, *yeryong'oq*, *yong'oq*, *yorongul*, *yog'ochlik*, *yog'och moyi* kabilarni ajratish mumkin. Sanalgan bu kabi terminlarning sof o'zbekcha so'zlar ekanligi maxsus etimologik tekshirishlar vositasida aniqlangan, deyishimiz mumkin. Masalan, *ajriq* so'zining etimologik tavsifi luga'tda quyidagicha keltiriladi:

¹⁵⁸ Хожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент: ЎЗМЭ, 2002. – Б.104. – 168 б.

¹⁵⁹ Mengliyev B. Hozirgi o'zbek tili. – Toshkent: Tafakkur bo'stoni, 2018. – B.174. – 200 b.

“AJRIQ” ildizdan tarmoqlanib yer bag’irlab o’sadigan yovvoyi o’t”. *Yomg’irdan keyin ajriq tez o’sadi*. Bu ot asli qadimgi turkiy tildagi “ajrat-”, “farqla-” ma’nosini anglatadigan **азыр-** fe’lidan **-(ы)к** qo’shimchasi bilan yasalgan: shundan keyin ikkinchi bo’g’indagi tor unli talaffuz qilinmay qo’ygan”¹⁶⁰.

Keltirilgan misoldan ko’rishimiz mumkinki, lug’atda biologik terminning turkiy so’z ekanligi bayon qilinibgina qolmasdan, uning qanday usulda yasalganligi haqidagi ma’lumotlar ham berilgan. Derivatsion xususiyatlarning berilishiga bu lingvistik hodisa so’zning etimologik jihatlatiga bevosita ta’sir qilishi mumkin. Lug’at muallifining ta’kidlashicha, so’z etimologik ma’nosi bilan hozirda ifodalaydigan ma’nosi orasida kichik farqlar kuzatilishi mumkin. Zero, til birligining dastlabki ma’nosi bilan uning zamonaviy ma’nosi orasidagi farqlarni ko’rsatib berish etimologik lug’atlarning vazifalaridan biri sanaladi. Terminlarning etimologik tahlilida bu farqlarni aniqlash yanada muhim hisoblanadi. Chunki sohaga doir tushunchani ifodalashda til birligi mohiyatni to’liq qamrab olishi ilmiy nuqtayi nazardan juda zarur. Ba’zi terminlarni ifodalovchi til birliklarining ma’no taraqqiyotidagi o’zgarishlar bunga imkon bermasligi mumkin. Yuqoridagi misolda ham “ajriq” terminining tarixan fe’ldan yasalgan ot ekanligi bayon qilingan. Ammo hozirgi o’zbek tilida bu so’z tub so’z hisoblanadi.

Ta’kidlash lozimki, o’z qatlamga mansub so’zlarning ba’zilari boshqa tildan o’zlashgan asosga qo’shimcha qo’shilishi natijasida yasalgan. Shunday so’zlar sirasiga qovun navini anglatuvchi *amiri* so’zini kiritish mumkin. *Amir* so’zi izohli lug’atda keltirilishiga ko’ra arab tiliga mansub bo’lib, *hokim*, *hukmdor*, *boshliq* ma’nolarini anglatadi¹⁶¹. Ammo *amiri* so’zi “po’chog’i va eti ko’kish, xipcha, uzunchoq, ertapishar qovun navi; uzumning navi”¹⁶² ma’nosini ifodalaydi va o’zbek tilining o’z ichki imkoniyatlari asosida hosil qilingan leksik birlik hisoblanadi. Asosi boshqa tilga mansub, ammo o’zbekcha qo’shimcha bilan yasalgan so’zlar o’z qatlamga mansub bo’lishi haqidagi fikrimizni quyidagi iqtibos dalillaydi: “O’z qatlam leksikasi faqatgina genetik jihatdan turkiy bo’lgan so’zlardangina iborat emas. O’zbek tilining so’z yasash sistemasi yangi so’zlar hosil qilishda o’zbek tiliga boshqa tillardan kirgan so’z materialidan ham foydalaniladi”¹⁶³. Umuman olganda, o’z qatlamga mansub botanik terminlarning aksariyati asl turkiy so’zlar hisoblansa, bir qismi o’zbek tilining ichki imkoniyatlari asosida yasalgan so’zlardir.

O’zbek tilining o’z qatlami boyitilishi, tizimlashtirilishi zarur bo’lgan muhim manba ekanligi isbot talab qilmaydi. Ma’lumotlarga ko’ra, o’zbek tilidagi o’z qatlam so’zlari 60

¹⁶⁰ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати (туркий сўзлар). – Тошкент: Университет, 2000. – Б.21. – 600 б.

¹⁶¹ O’zbek tilining izohli lug’ati: 6 jildlik, 1-jild. – Toshkent: G’afur G’ulom, 2022. – B.103. – 964 b.

¹⁶² O’zbek tilining izohli lug’ati: 6 jildlik, 1-jild. – Toshkent: G’afur G’ulom, 2022. – B.103. – 964 b.

¹⁶³ Ўзбек тили лексикологияси / муаллифлар жамоаси. – Тошкент: Фан, 1981. – Б.64. – 315 б.

foizdan ortiqni tashkil etadi¹⁶⁴. Terminologiyada, sohalardan kelib chiqqan o‘zlashma qatlam so‘zlari biroz ko‘proqni tashkil etadi. Garchi fan va soha leksikasi umumadabiy til zahirida shakllansa-da, xalqaro standartlar, umumbashariy qoidalar asosida terminlar hosil bo‘lishini ham unutmash lozim. Aksariyat hollarda terminlar muayyan sohaga oid tushunchalarni ifodalash uchun sun‘iy o‘ylab topilishi mumkinligi va bu so‘zning xalqaro miqyosda tarqalishi ham terminologiyada o‘zlashma qatlamning adabiy tildagiga nisbatan ko‘proq bo‘lishiga hissa qo‘shadi. “Umumtil terminlaridan farqli o‘laroq, ilm-fan, texnikaga xos terminlar iyerarxik birliklar sifatida terminologik sistemalarga birlashadi, ular o‘z ma‘nolariga faqat ayni sistema ichida erishadi, bu sistemada ularga mantiqiy terminologik maydon mos keladi”¹⁶⁵. Keltirilgan fikrlar botanikaga oid terminlar orasida o‘zlashma qatlam birliklarining yetarlicha ekanligini izohlaydi.

O‘zbek tilining o‘zlashma qatlamida fors tojik tilidan o‘zlashgan so‘zlar salmoqli qismni tashkil qiladi. Buni o‘zbek va fors-tojik tillarida muloqot qiluvchi xalqlarning minyilliklar davomida yonma-yon yashab kelganliklari, ular orasida ijtimoiy, iqtisodiy aloqalar qatorida madaniy munosabatlarning ham rivojlanganligi bilan dalillash mumkin. Qolaversa, o‘zbek va fors-tojik tillarining izohli lug‘atlari tahlili ham fikrimizni dalillaydi. Fors-tojik tilidan o‘zlashgan so‘zlar adabiy tilimizda shu qadar o‘rinlashganki, ularni jamiyatimiz hayotining barcha sohalarida uchratishimiz mumkin. Xuddi shuningdek, o‘zbekcha so‘zlar ham tojik tiliga juda ko‘p miqdorda o‘zlashganligini ham aytib o‘tish lozim. Fors-tojik tilidan o‘zlashgan botanik termin sifatida qayd etiladigan aksariyat til birliklari kundalik hayotda ham faol qo‘llanadi. *Lola, nayma, palla, pista, sarv, sarsabil, sebarqa, sedana, soyaparvar, tilla, tuxum, chatir, navro‘zgul* kabi o‘simlik nomlarini ifodalovchi terminlar fors-tojik tilidan o‘zlashgan. Keltirilgan so‘zlarning aksariyati madaniy o‘simliklar sirasiga kirishi, inson hayoti davomida, garchi soha mutaxassisi bo‘lmasa ham, o‘z nutqida qo‘llashi mumkin bo‘lgan so‘zlardir. Ammo keltirilgan fors-tojik tilidan o‘zlashgan terminlar orasida kundalik hayotda kam qo‘llanadigan, faqat mutaxassislar uchun tushunarli bo‘lganlari ham mavjud. *Chatir, soyaparvar, sarsabil, sebarqa, nayma* kabi so‘zlar shular jumlasidandir. *Sarv* so‘zi esa tarixan mamlakatimizda ko‘p miqdorda o‘stirilgan, ammo hozirda yetishtirilishi urf bo‘lmagan o‘simlikni anglatadi. O‘TILda *sarv* so‘zi uchun “[konus shaklli, ignabargli daraxt; qaddi raso, xushqomat] 1 bot. Janub mamlakatlarida o‘sadigan, ignabargli doim yashil tik daraxt”¹⁶⁶ izohi keltirilgan. Shu tufayli o‘zbek tilida muloqot qiluvchilarning katta qismi *sarv* so‘zini termin sifatida emas, balki konnotativ ma‘nosi orqali shakllantirilgan “tik qomatli” ma‘nosida anglaydi. Fors tilidan o‘zlashgan til

¹⁶⁴ Mengliyev B. Hozirgi o‘zbek tili. – Toshkent: Tafakkur bo‘stoni, 2018. – B.178. – 200 b.

¹⁶⁵ Dadaboyev H. O‘zbek terminologiyasi. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2019. – B.5. – 136 b.

¹⁶⁶ O‘zbek tilining izohli lug‘ati: 6 jildlik, 4-jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2022. – B.553. – 825 b.

birliklari, xususan, terminlar qator tilshunoslar tomonidan tadqiq qilingan. Hozirgi kunda ham bu boradagi ishlar davom etmoqda¹⁶⁷. Bu kabi tadqiqotlar fors-tojik tilidan o‘zlashgan so‘zlarni tartiblashtirishda, ularning o‘zbek tili leksikasidagi ahamiyatini belgilashda ahamiyatlidir. Sanalgan tadqiqotlarning qo‘llanish doirasi chegaralangan so‘zlarga bag‘ishlanganligi ularning dolzarbligini yanada oshiradi. Shu bilan birga, o‘zlashma so‘zlarni tadqiq qilish borasida muayyan sohalar bo‘yicha yondashish samarali ekanligini ko‘rsatadi. Jumladan, fors-tojik tilidan o‘zlashgan botanik terminlarning tahlili, ularni tartibga solish, boshqa tillardagi terminlar bilan qiyosi soha mutaxassislari natijalarini kutayotgan tadqiqotlar sirasiga kiradi.

¹⁶⁷ Ermo‘minova M. O‘zbek tili leksikasida forscha-tojikcha so‘zlardan o‘zlashgan kasb-hunar atamalari // The theory of recent scientific research in the field of pedagogy, India international scientific online conference, 2021, – P.105-106; Isomiddinov F., Do‘smatov H., Juma J. O‘zbek tilining fors-tojikcha o‘zlashmalar lug‘ati, – Farg‘ona: Classic, 2022. – 355 b; Rasulova N. Fors-tojik tilidan o‘zlashgan taom nomlari // Science and Education Vol 1. No.8. 2020. –P. 363-366.